

AYRIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLarda LEKSİK VARIANTLANISH

Botirova Rayxona Abdurofiq qizi, SamDU tayanch doktoranti

LEXICAL VARIATION IN SOME PHRASEOLOGICAL UNITS

Batirova Raykhona Abdurafiq kizi, PhD student at SamSU

ЛЕКСИЧЕСКАЯ ВАРИАТИВНОСТЬ В НЕКОТОРЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ

Батырова Райхона Абдурафик кызы, базовый докторант СамГУ



<https://orcid.org/0009-0008-4198-5893>

e-mail:

rayxonabotirova39@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada kishilarning ruhiy holati, xarakter-xususiyatini ifodalovchi “ko‘ngil”, “yurak”, “qalb”, “dil” leksemali iboralar tahlil qilinadi. Bu frazemalar til sathidagi tutgan o‘rniga ko‘ra o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zaro variantlilik munosabatini yuzaga keltiradi. Variantlilik ushbu frazemalar o‘rtasida eng ko‘p kuzatiladigan hodisa bo‘lib, frazemalarning semantik va uslubiy xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: frazema, ibora, variantlilik, sinonimlik, fe’l frazema, sifat frazema, so‘zlashuv uslubi, badiiy uslub.

Аннотация: В статье анализируются фразеологизмы с лексемами “күнгил” (душа), “юрак” (сердце), “қалб” (сердце), “дил” (сердце), выражающие психическое состояние и черты характера людей. Эти фраземы имеют особое значение в соответствии с их местом на языковом уровне и образуют между собой отношения вариативности. Вариативность является наиболее часто наблюдаемым явлением среди этих фразем и связана с их семантическими и стилистическими особенностями.

Ключевые слова: фразема, фразеологизм, вариативность, синонимия, глагольная фразема, адъективная фразема, разговорный стиль, художественный стиль.

Abstract: The article analyzes phraseological units with the lexems “ko‘ngil” (soul), “yurak” (heart), “qalb” (heart), “dil” (heart) expressing the mental state and character traits of people. These phrasems have special significance according to their place at the language level and form a relationship of variation between themselves. Variation is the most frequently observed phenomenon among these phrases and is related to their semantic and stylistic features.

Keywords: phrase, phraseologism, variability, synonymy, verbal phrase, adjective phrase, colloquial style, literary style.

KIRISH. Ma’lumki, ko‘ngil, qalb, dil, yurak sinonim so‘zleri “insonning ruhiy kechinmalari, ma’naviy dunyosi his qilinadigan joy, ramziy markaz” [10.357] ma’nolarini anglatadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu yaqin ma’noli leksemalar asosida shakllangan sinonim va variantdosh

frazemalar anchagini: ko‘ngli to‘q, yuragi yorildi, diligiga tugdi, qalbini yoritmoq kabi. Bunday leksemalar frazemalarning semantik tayanch komponenti vazifasida kelib, morfologik jihatdan sifat (ko‘ngli bo‘sh, dili vayron) va fe’l frazemalarni

(“ko’nglini bo’shatmoq”, “ko’nglini uzmoq”) shakllantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Frazeologik variantlar o‘zbek tilining kuchli tasviriy-uslubiy vositalaridan sanaladi. Bu hodisa o‘zbek tilshunosligida dastlab Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli doktorlik dissertatsiyasi va shu asosda e’lon qilingan monografiyasida o‘zbek tilidagi frazemalarni lug‘avyi birlik sifatida o‘rganishni asoslab berdi. Ishda frazemalardagi ko‘p ma’nolilik, ma’nodoshlik, antonimlik, shakldoshlik va variantdoshlik [3] hodisalari juda chuqur va asosli materiallar bilan tadqiq etilgan. B.Yo’ldoshevning “Frazeologik uslubiyat asoslari” nomli o‘quv qo’llanmasida frazeologik sinonimlarni frazeologik variantlardan [7] farqlash belgilarini ko‘rsatib bergen, shuningdek, A.Mamatov [1], M.Vafoyeva [6], U.Rashidovalarning [5] ilmiy tadqiqotlarida ham bu masalaga to‘xtalib o‘tadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR. “Ko’ngil”, “yurak”, “qalb”, “dil” komponentli frazemalardan shaxslarning ruhiy holatini tasvirlashda foydalaniлади. Bu iboralar qo‘rquv (“yuragi shuv etdi”, ko’ngliga xavotir oraladi), xafalik (ko’ngli ranjidi, ko’ngli buzildi), rahmdillik (ko’ngli iyidi, yuragi yumshadi), xotirjam bo‘lish, tinchlanish (ko’ngli joyiga tushdi), bezovta bo‘lish (yuragiga g‘ulg‘ula tushdi, ko’ngli g‘ashlandi), ruhan azoblash (ko’nglini ezdi, yuragini ezdi), diltang bo‘lish (yuragi siqildi, ko’ngliga qil sig‘maydi), sevinib, juda kuchli hayajonlanish (yuragi toshdi, yuragi yorildi, ko’ngli shodlandi, ko’ngliga sevinch oftobi mo‘raladi, bahri dili ochildi) kabi shaxslarning ruhiy-emotsional holatlarini ifodalaydi.

Adabiy tildagi “ko’ngli yumshadi” frazemasiga kitobiy uslubga xos bo‘lib, “rahmdilli uyg‘ondi” [O‘TFL,287] ma’nosini anglatadi: Jalil vaziyatni yumshatishga urinmasa ham Asadbek xayoliga kelgan fikrdan ko’ngli biroz yumshagan tufayli yigitga boshqa tanbeh berish niyati yo‘q edi (T.Malik). Badiiy matnlarda “ko’ngli yumshadi” frazemasining inversiyaga uchragan holati ham ko‘p kuzatiladi, bu esa matnda ohangdorlikni yuzaga keltiradi: Zaynab shunday deb chiqmoqchi edi, Abdusamad yo‘lini to‘sdi. Kesakpolvon “Asadbekning asl qizi”, deb yanglishmagandi.

Yumshoq ko’ngilli Abdusamad singlisining yo‘liga g‘ov bo‘lolmadi (T.Malik).

Bu frazemaning so‘zlashuv va badiiy uslubda qo‘llanuvchi “yuragi yumshadi”, “qalbi yumshadi”, “dili yumshadi” kabi variantlari ham mavjud. Bu variantdosh frazemalarning semantik tayanch komponentlari – yurak, dil, qalbning sinonimi bilan almashinuvni hamda grammatik tayanch komponent umumiyl leksema qurilishidan iborat.

Frazemalarni frazeologik variant deyish uchun Sh.Rahmatullayev ta’kidlaganidek, quyidagi belgilar kuzatiladi:

1. Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar turli-tuman leksik, grammatic o‘zgarishlar tufayli biri ikkinchisidan o‘sib chiqqan bo‘lishi, barchasi bir manbaga, bir asosga birlashuvi lozim.

2. Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar asosida ayni bir obraz yotishi lozim (bu obrazning variantlarga ko‘ra so‘nish-so‘nmasligidan, qay darajada o‘qilishidan qat’i nazar).

3. Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar ayni bir ma’noni anglatishi lozim (ular o‘zaro ma’noning kuchli-kuchsizligida, nutqiy, stilistik belgilarida farq qilishi mumkin).

4. O‘zaro o‘sib chiqqan variantlar qurilishida umumiyl leksik komponent bo‘lishi shart (ikki va undan ortiq iboraning qurilishida umumiyl leksik komponentning mavjud bo‘la olishidan qat’i nazar) [3.145].

Adabiy tildagi “ko’ngli yumshadi” frazemasiga nisbatan “yuragi yumshadi” iborasi so‘zlashuv uslubida keng qo‘llanadi: “Tabibboshining rangi bo‘zardi. Lablari titradi. Binoyi kiyungan, xushsurat bu yigit kirib kelganida tabibboshining *tosh yuragi yumshagan* edi” (T.Malik). Berilgan misolda “*tosh yuragi yumshagan*” frazemasi ikki qarama-qarshi ibora (yuragi tosh – yuragi yumshoq)ning qismlarini birlashtirgan holda bir matn doirasida qo‘llaydi. Ikki frazema qismlarining birlashtirib ishlatilishi iboraning obrazliligini, emotsiyal-ekspressivligini oshirgan. Xuddi shunday holatni quyidagi misolda ham uchratish mumkin. “Dili xufton” hamda “dili yorishmoq” frazemalarining komponentlari yaxlitlanib “xufton dili (birdan) yorishib ketdi” ko‘rinishida qo‘llanadi: “O‘tgan kuni peshinda bir yigit kelib: “Sharif akamgila xat berib yubordila”, deganida *xufton dili* birdan yorishib ketdi. Ammo “Besh ming berib yubor”, degan gapni o‘qib ajablandi” (T.Malik).

Shaxsning rahmdillik holatini ifodalovchi “qalbi yumshadi” hamda “dili yumshadi” iboralarini asosan badiiy uslubda qo’llaniladi: “Abdurahmon tabibnikida davolanayotgan kezlarini uning *qalbi* bir oz *yumshaganday bo’lib edi*. Keyin yana asliga qaytdi” (T.Malik); “Qizimning eriga ko’ngli yo‘q, – deb o‘yladi Manzura. – Farzand ko’rsa balki *dili yumshar...*” (T.Malik);

Yuqorida qayd etilgan variantdosh frazemalar asosida ayni bir obraz, ya’ni kishining his-tuyg‘u va kechinmalari manbai yotadi. Bu frazemalar bir-biridan nutqiy, uslubiy belgilariga ko‘ra farqlanadi. Yana shunisi xarakterlik, bu frazemalar “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da ham, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham o‘z aksini topmagan.

Tilda “yurak”, “qalb”, “ko‘ngil”, “bag‘ir”, “dil” komponentlari bilan shakllangan frazemalar hech qanday ma’no o‘zgarishisiz o‘zaro almashinib turli variantlar hosil qilishini kuzatish mumkin: *yuragi sezmoq// qalbi sezmoq// ko‘ngli sezmoq; yuragi o‘rtanmoq// qalbi o‘rtanmoq// ko‘ngli o‘rtanmoq; yuragiga chiroq yoqmoq// ko‘ngliga chiroq yoqmoq // bag‘riga chiroq yoqmoq // qalbiga chiroq yoqmoq; yuragiga cho‘g‘ solmoq // qalbiga cho‘g‘ solmoq; ko‘ngli g‘ashlanmoq// yuragi g‘ashlanmoq//dili g‘ashlanmoq* kabi. Yuqoridagi frazemalarning variantlashuvida semantik tayanch so‘zlar – kishining sezgisi, ruhiy kechinmalari sodir bo‘ladigan va saqlanadigan joy ma’nosini ifodalashi asos bo‘lib keladi.

Badiiy matnda personajlar tavsifini berishda ijodkorlar frazeologik birliklar yoki ularning variantlaridan keng foydalanishadi: “Agar Zaynabning *yuragi kengroq* bo‘lganida bunday bachkanaliklarga e’tibor bermagan bo‘ldi. Kengga keng dunyo, torga tor dunyo deganlariday, hozir uning *ko‘ngliga* hatto qil ham sig‘maydi” (T.Malik); “Chaqiring ularni, qadamlariga hasanot. Tortinmay chaqiravering, uyimiz keng, uy torlik qilsa, Xudo xohlasa *bag‘rimiz kengdir*” (T.Malik); “Bilardim, lekin boshqalarga o‘xshab kuyib-yonmasdim. Xudo insof bersin, derdim. – *Ko‘nglingiz keng ekan*” (T.Malik).

Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi uchta misoldagi variantdosh frazemalar kishilarning fe’l-atvori bilan bog‘liq bo‘lib, bu sifat frazemalar “uncha-munchaga tashvish tortmaydigan, g‘am chekmaydigan, mehr-muruvvatli” ma’nosini bilan qatnashgan. Lekin yurak, qalb, ko‘ngil, bag‘ir kabi so‘zlar bilan shakllangan frazemalarni har doim

ham bir-biri o‘rnida qo‘llab bo‘lmaydi: “Qizning *qalbini zabit etgan* yigitning kasbi zargar ekan” (T.Malik); “Gumon ba’zan Zaynabning xiyonatiga ishontirmoqchi bo‘ldi, *yurakni zabit etgan* mehr esa bunga yo‘l qo‘ymasdi” (T.Malik). Berilgan misollardagi “*yurakni zabit etgan*”, “*qalbini zabit etgan*” frazemalari o‘zaro erkin almashinib qo‘llana oladi, ammo bu frazemalarning “bag‘ir” komponenti bilan shakllangan varianti mavjud emas.

Adabiy tildagi “diltang bo‘lmoq, ziq bo‘lmoq” ma’nolarini anglatuvchi “ko‘ngli xufton bo‘ldi” // “dili xufton bo‘ldi – dilini xufton qildi” fe’l frazemalari badiiy uslubda keng qo‘llaniladi: “Mahkumalar orasidagi go‘zallarning aksari bu xizmatdan bo‘yin tovlamas, aksincha, chorlanmay qolishsa *ko‘ngillari xufton bo‘lardi*” (T.Malik); “Ular Abdurahmon tabibnikida shifo topayotgan Asadbekning iymonga kirishiga ishonib, Yaratganga shukurlar aytishgan edi. Undan sal ilgariroq gap talashib qolishganda Asadbek iymonga da’vat etilishiga javoban yarim hazil, yarim chin ohangida “Ko‘ramiz, sening iymoning kuchlimikin yoki mening shaytonim qudratliroqmikin?” deb javob qaytarib, Jalilning *dilini xufton qilgan edi*. O’shanda ham Jalil tavbagda undagan, biroq do’sti gapni hazilga burib yuborgan edi” (T.Malik).

“Ko‘ngli xufton bo‘ldi” frazemasining “bo‘ldi” fe’l komponentining qisqaruvi iborani sodda, ixcham shaklga ega qilgan, natjada “ko‘ngli xufton” sifat frazeologizmi shakllangan: “Ba’zan esa qandaydir arzimagan ish katta bir tashvish ko‘rinishida unga arz qilinadi-yu, *xufton ko‘ngli* battar zulumot qa’riga cho‘kadi” (T.Malik).

“Ko‘ngli xufton” frazemasasi “Shaytanat” asarida badiiylik mezoniga mos ravishda uslubiy noziklik bilan okkazional qo‘llanishi kuzatiladi: “O‘zining *ko‘ngli* esa yana *xufton qorong‘uligiga yuz burdi*. Chunki u “oqqush qo‘shig‘i”ning asl ma’nosini bilardi: aytadilarkim, oqqush o‘limi yaqinlashganini payqab, balandlarga parvoz etarkan-da hayotidagi so‘nggi qo‘shig‘ini kuylarkan...”(T.Malik)

“Mushtariy biroz jim turdi. Xuddi sukunatga qulqoq tutib opasi aytmoqchi, hilolning shivirlashlarini eshitgandek bo‘ldi. So‘ng boshini ko‘tarib Cho‘lponoya tikildi: – Olloh, Olloh, ayriliq shomining zimziyoligi qanchalar dilni xufton-u jonni sargardon etguvchi emish.

Cho‘lponoy singlisining dardli gaplarini eshitib, kulimsiradi-da, qoshlari, yuzlarini silay turib, dedi: -Vah, vah! Visol tongining ravshanligi qanchalar dilga yoqimlig-u jonni quvontirguvchi emish...”(T.Malik)

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, ko‘ngil, yurak, qalb, dil komponentli frazemalar shaxslarning ruhiy holati, xarakter-xususiyatini ifodalab, shakliy va mazmuniy xususiyatlari bilan bog‘liq holda o‘zaro turli munosabatlarga kirishadi. Maqola mavzusi doirasida uni frazeologik variantdoshlik hodisasi misolida ko‘rib o‘tdik. Ko‘ngil, yurak, qalb, dil leksemalari asosida shakllangan frazemalar o‘rtasidagi variantlilik hodisasi yozuvchiga badiiy tasvirni keng miqyosda yoritib berishda, qahramonlar fikrini yorqin va ta’sirli bo‘lib ifodalanishiga yordam beradi. Shuningdek, ko‘ngil, yurak, qalb, dil so‘zlari bilan shakllangan frazemalarning turli variantlarda qo‘llanishi takroriylikning oldini olib, ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Маматов Абдуғафур. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш асослари. АҚД, -Тошкент, 2000. -Б,316.
2. Раҳматуллаев Ш. Феъл фразеологик бирликларда мавжудлик категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1963. №4.-В.32-36.

3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. –Тошкент: Фан, 1966. –264 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. –382 б.
5. Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили. Филол.ф.ф.д.диссертацияси. – Самарқанд, 2018. –140 б.
6. Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол.фан.ном.диссертацияси. – Тошкент, 2009. -127 б.
7. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. Ўкув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри. 1998. – 200 б.
8. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Фил.фан.док. дисс.автореферати. –Тошкент, 1993. – 50 б.
9. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Т.: “Мухаррир” нашриёти. 2013.-300 б.
10. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Sh.Rahmatullayev va boshqalar. – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
11. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild. N.Mahmudov tahriri ostida.-T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.-504 bet.

